ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Resume. As a result of mutual cultural, educational, economic and political ties between countries, the meanings and functions of many characteristics representing the concepts of people's life become familiar to representatives of a number of nations, including owners of the target language, translators interpret such words by transliteration, without looking for alternative linguistic means in their native language.

Резюме. В результате взаимных культурных, образовательных, экономических и политических связей между странами значения и функции многих характеристик, репрезентирующих понятия жизни народа, становятся знакомыми представителям ряда народов, в том числе и владельцам языка перевода, переводчики интерпретируют такие слова транслитерацией, не ища альтернативных языковых средств на своем родном языке

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHI VA ULARNING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI (Afg'oniston o'zbek dehqonlari nutqi misolida)

Aziz Amini,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Frazeologik birliklarga oid ilmiy tadqiqotlar jahon va o'zbek tilshunosligida ko'plab amalga oshirilgan. Ayniqsa, Shimoliy Afg'onistonda ham bu borada bir qator tadqiqot ishlari mavjud. O'zbek tilining frazeologiyasi bo'yicha Yarqin Mohammad Halimning «O'zbek tili frazeologik so'zligi (Afg'oniston o'zbek tilidagi)» nomli asari mavjud. Mazkur asarda Afg'oniston hududida istiqomat qiluvchi o'zbeklar nutqida qo'llaniladigan 2925 ta ibora to'planib, izohlangan. Shuningdek, Fayzullo Aymoqning «Xalq durdonalari», Orif Usmonning «Xalq tafakkuri», Solimuhammad Hasosning «Zarbulmasallar yo maqollar», Ne'matulloh Yo'ldoshning «Otalar so'zi» kitoblari, qolaversa, «Yulduz» va boshqa bir talay nashriyotlarda bosilib chiqqan «Otalar so'zi» o'rnaklari (hikmatli so'zlar) orasida ko'pgina maqollar va matallar bilan birga frazeologizmlar ham aralashib qolgan. «Chunki bu kitoblar va asarlarning mualliflari, ya'ni to'plovchilari maqol, matal va iboralarning farqiga bormagan»[1], – deya ta'kidlaydi olim Muhammad Halim Yorqin. Yuqorida keltirilgan manbalarda Afg'oniston shimolida yashovchi o'zbeklar nutqida ishlatiladigan iboralar haqida birmuncha keng va batafsil to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, dehqonchilikka oid frazemalar alohida tadqiq obyekti sifatida o'rganilmagan.

O'zbekistonda ham frazeologiya sohasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sh.Rahmatullayev boshlab bergan ushbu maktab vakillari sifatida M. Sattorov, M.Sodiqova, B.Yo'ldoshyev, K.Bozorboyev, Q.Hakimov, M.Xoliqova, Sh.Usmonova, Sh.Abdullayev, A.Abdusaidov, G.Isaqova hamda aka-uka olimalar A.Mamatov, A.Mamatov va boshqa olimlarning izlanishlari alohida ahamiyatga ega.

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa aloqador hisoblanadi. Birdan ziyod mustaqil so'z birlashishidan hosil bo'lib, obrazli ma'noviy xususiyatga ega bo'lgan lisoniy birlik *frazeologizm* deyiladi. Ular, bir tomondan, til birligi sifatida ma'lum tushunchani

[1] Yorqin M. O'zbek tili frazeologik so'zligi (Afg'oniston o'zbeklari tilidagi). – Tehron: Xuroson intishorot muassasasi, 2013. – B. 4.

ifodalashsa, ikkinchi tomondan, har bir millatning ko‘p yillik turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati, ma’naviyati hamda an’analarining badiiy asarlarda ifodalovchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda ma’lum holatning, voqeiylikning ta’sirchan, obrazli bo‘lishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iboralar ham xuddi maqollar va matallar singari xalq tomonidan yaratilib, nutq jarayonida keng miqyosda ishlatiladi. Ular topqirlik, hozirjavoblik va nutq mahoratini oshirishning asoslaridan biridir.

Ibora – nutq birligi, u faqat nutq vaziyatida yuzaga keladi va uni so‘zga tenglashtirish (ma’nosi bir so‘zga teng birikma *ibora* deyiladi) sof hissiy holat natijasidir.

«Frazeologizmlar asosan ikkiga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Sof tilshunoslik nuqtai nazaridan. Bunda u lisoniy belgi sifatida qaraladi hamda uning ifoda va mazmun planlarigina o‘rganiladi.

2. Matn (nutq hodisasi) nuqtai nazaridan. Bunda uning ifoda, mazmun va boshqa shunga o‘xshash tomonlari bilan birgalikda o‘rganiladi.

Iboralarni o‘rganishning bu ikki yo‘lini aralashtirmaslik zarur»[1].

Frazeologiya tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur bo‘lim asosan XX asr, qolaversa, so‘nggi yigirma yillikda rivojlandi. «Frazeologizmlarning hududini belgilashda, ayniqsa, mazmun-mohiyatiga ko‘ra olimlar orasida quyidagi uchta nazariya mavjud:

1. Bir guruh olimlar fikriga ko‘ra, tarkibidagi barcha so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatiladigan iboralargina frazeologik iboradir.

2. Ikkinchi guruh olimlar fikriga ko‘ra, iboradagi bir so‘zgina ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lsa, u frazeologik ibora deyiladi.

3. Uchinchi guruh olimlarning fikricha, ko‘chma ma’nosiga qaramasdan tilning barcha sayqallangan iboralarini frazeologik birlik deyish mumkin».

O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev frazeologik birliklarni asosiy va keng ko‘lamda o‘rgangan olimlardan biri hisoblanadi. Tilshunos olim o‘zbek tili frazeologiyasining asoschisi sifatida tan olingan. Olimning doktorlik ilmiy ishi ham iboralar haqida bo‘lib, shu jarayonda ushbu sohaga doir bir necha maqola va kitoblari nashr qilingan. Uning 1964-yili «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» nomi ostida bosmadan chiqarilgan asarida mingga yaqin iboralarning ma’nosi, tegishli misoli, muqobillari, o‘xshashlari alifbo tartibida keltirilgan.

Shimoliy Afg‘oniston va O‘zbekistonda yashovchi o‘zbek dehqonlari nutqida ishlatiladigan frazeologik birliklar tarkibi fonetik, grammatik va morfologik jihatdan farq qilsa-da mazmunan bir sema ostida birlashadi. Masalan, ***«Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq»*** iborasi Shimoliy Afg‘onistonda ***«Tarbuzi qo‘ltig‘idan tushti»*** **(تربوزی قولتیغیدن توشدتی)** tarzida aytiladi. Bu ikkalasi semantik jihatdan o‘xshashdir. Chunki ikkala hudud vakillari nutqida ham, o‘ylagan ishi amalga oshmaslik, puchga chiqib, bo‘shamoq». Barcha urinishlari puchga chiqmoq ma’nosida qo‘llaniladi. Misol, «Dafndan so‘ng to‘y bir yilsiz bo‘lmasligini eshitgan qari kuyov tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, qishlog‘iga xomush qaytib ketdi» (M.Ismoiliy. *Farg‘ona tong otguncha*). Mazkur misoldan ushbu ibora kutilmagan salbiy vaziyat sodir bo‘lganda, yomon vaziyatga tushib qolinganda ham ishlatilishining guvohi bo‘lamiz.

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida qo‘llaniluvchi iboralarning ko‘p qismi «g‘albur» (g‘alvir) konsepti bilan bog‘liqdir. Chunki ushbu dehqonchilik asbobi, g‘alla mahsulotlarini tozalashda ko‘p ishlatiladi. Shuningdek, aholi nutqida, mazkur leksema bilan bog‘liq frazemalar ham ko‘p qo‘llaniladi.

Jauzjan viloyati Xo‘jaduku tumani «Qizilayoq» qishlog‘ida yashovchi Hamidullo bilan o‘tkazilgan dehqonchilikka oid suhbatimiz davomida ***«G‘albur (g‘alvir)-chig‘il qilmoq*** **(غلبور-چیغیل قیلماق)** iborasini keltirdi. Ushbu ibora biror kimsa yoki narsani yaxshi tekshirib ko‘rmoq, tahlil va tajriba qilmoq ma’nosida qo‘llaniladi. *Yerga urug‘ qadashdan oldin yaxshilab* ***g‘albur-chig‘il*** *qilsih lozim.*

«G‘alburga (g‘alvir) suv toshimoq» **(غلبورگه سو تاشیماق)** iborasi Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida, unumsiz va behuda ish yoki mehnat qilmoq ma’nosida qo‘llaniladi. *Bu ishingdan foyda yo‘q, aynan g‘alburga suv tashigandek»*[2].

«G‘albur-chig‘il qilmoq **(ق‌املی‌ق لی‌غ‌چ-روبل‌غ)**» iborasi ham g‘alvir leksemasi ishtirokidagi frazeologik birliklardan biri hisoblanib, ushbu hudud vakillari nutqida, ilma-teshik qilib tashlamoq ma’nosida qo‘llaniladi. *Portlashning charalari bechoraning badanini g‘albur-g‘albur qilgan ekan.*

«G‘alburni (g‘arbel) suvdan chiqarmoq **(غلبورنی سودن چیقرماق)**» iborasi Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida, nimaligini ma’lum qilmoq, asl chehrasini ochib tashlamoq, mohiyatini fosh qilmoq ma’nosida qo‘llaniladi. *Uning asl qiyofasi g‘albur suvdan chiqarilganida bilinadi.*

Dehqonchilikning asosiy mahsulotlaridan biri arpa hisoblanadi. Saripul viloyati oqsoqoli Abdulqodir (dehqon)ning aytishiga ko‘ra, aholining iqtisodiy sharoiti og‘ir bo‘lgan paytlarda, insonlar arpa unidan tayyorlangan nonlarni iste’mol qilib, jon saqlashgan. Shu boisdan «arpa» konseptiga oid frazemalar

[1] Yorqin M. O‘zbek tili frazeologik so‘zligi (Afg‘oniston o‘zbeklari tilidagi). – Tehron: Xuroson intishorot muassasasi, 2013. – B. 6.
[2] Yorqin M. O‘zbek tili frazeologik so‘zligi (Afg‘oniston o‘zbek tilidagi). – Tehron: Xuroson intishorot muassasasi, 2013. – B. 279.

aholi nutqida hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. «*Arpasini xom o‘rmoq»* **(ارپه سینی خام اورماق)** iborasi Shimoliy Afg‘onistonda yashovchi o‘zbek dehqonlari nutqida, xafa qiluvchi, hiylagar, nayrangboz, hamisha odamlarni chuv tushirib ketadigan insonlar ma’nosida qo‘llaniladi. Ba’zi ekinlarni *xomlayiga,* ya’ni pishib yetilmasdan o‘rishdan unchalik katta ziyon ko‘rilmaydi. Hatto bodring yoki baqlajon kabilarning pishib o‘tib ketganini yeb ham bo‘lmaydi. Urug‘ini olish uchungina sarg‘aytirib, so‘ngra yig‘ishtirib olinadi. Masalan, bug‘doy o‘rishi muddatidan kechiktirilsa, uning boshog‘i to‘kilib, donlari sochilib ketadi. Biroq arpaga nisbatan bunday deyish qiyin. Shuning uchun ham mazkur iborada bug‘doy yoki boshqa bir qandaydir ekin to‘g‘risida emas, aynan arpa to‘g‘risida so‘z boradi. Ya’ni keltirilgan ziyonning ko‘lami katta ekanligini ifodalash uchun ham.

«Chaman bo‘lmoq **(چمن بولماق)** – gurkirab ochilmoq, o‘smoq, rivojlanmoq». *Yangi ekilgan chimlar yaxshi chaman bo‘lgan.*

«Sapchaday uzmoq **(سپچه دی اوزماق)** – biror narsani bir zarb bilan kesmoq. *Tovuqning boshini sapchaday kesib tashladi***».**

Xushomad qilish, mulozamat ko‘rsatishda mubolag‘a qilish. Haddan ziyod yumshoqlik va laganbardorlik mazmunini ifodalovchi «*Paxta qo‘ymoq»* iborasi Shimoliy Afg‘onistonda istiqomat qiluvchi o‘zbek dehqonlari nutqida qo‘llanilishi bilan birgalikda O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklar nutqida ham faol ishlatiladi. Bu esa ikkala hudud vakillari nutqida qo‘llanuvchi barqaror birikmalarning o‘xshash jihatlari mavjudligidan dalolatdir.

Shimoliy Afg‘onistonning Jauzjan viloyati oqsoqoli **Muhammad Sarvar Ko‘rgarning aytishiga ko‘ra** ishda ko‘ngli bo‘lmaslik, ishyoqmaslik mazmuni ifodalashda ***«O‘roq****ni kesakka tezlamoq (qayramoq)»* **(اوراقنی کیسکه تیزله ماق)** iborasi ishlatiladi. Buncha bahona qilma, «*ishyoqmas o‘rog‘ini kesakka tezlar*» **deganlari to‘g‘ri.** *(Dala daftaridan)*

Dehqonchilikka oid iboralarni lingvistik jihatdan tahlil qilishimiz natijasida, ushbu sohaga oid birliklar tarkibida fors-tojik hamda arab tilidan o‘zlashgan frazeologik birliklar ham mavjud. Masalan, ***«Shahri xarbo‘za»*** **(شهر خربوزه)** iborasidagi shahar-forscha, xarbo‘za-forscha leksemalari birlashishi asosida paydo bo‘lgan. qonunsizlik, o‘zboshimchalik, ***bebosxost*** shahar ma’nosida qo‘llaniladi. *Nima o‘z boshingga moliyani (soliqni) ko‘paytirib olmoqchisan, bu shahri* ***xarbo‘zami***». ***«Tabi tarig‘ bo‘lmoq»*** **(طبعی تریق بولماق)** iborasi tarkibidagi (tabi-arabcha) leksemasi ham o‘zlashgan qatlamga mansub bo‘lib, tabi xira bo‘lmoq ma’nosida qo‘llaniladi.

Umuman olganda frazemalarni o‘rganish va tahlil qilish bir nechta metodlar asosida amalga oshiriladi. G.Begmatova «Frazeologiyada turg‘un birliklarni ajratib tahlil qilish, o‘rganish va tasnif qilishning komponent tahlil, identifikatsiya, applikatsiya va kombinatsiya metodlari mavjud» deb izohlaydi. Izlanishlarimiz natijasida Afg‘oniston shimolida yashovchi aholi vakillarining nutqida kuzatiladigan adabiy va dialektal iboralar to‘plandi va leksikografik planda lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari tahlil qilindi.

Rezyume. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning o’rganilishi, Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida qo‘llanilishi, ikkala mamlakat (O‘zbekiston, Afg’oniston) hududidagi frazeologik birliklarning mazmuniy yaxlitligi hamda leksikografik xususiyatlari tahlil qilingan.

Resume. This article examines the study of phraseological units, their usage in the speech of Uzbek farmers in Northern Afghanistan, as well as the semantic integrity and lexicographic features of phraseological units in the territories of both countries (Uzbekistan and Afghanistan

Резюме. В данной статье рассмотрены изучение фразеологических единиц, их использование в речи узбекских крестьян Северного Афганистана, а также семантическая целостность и лексикографические особенности фразеологических единиц на территориях обеих стран (Узбекистан и Афганистан). «бросить» и «дать» в художественных произведениях и в словарях.